HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

FAXRI HIRAVIYNI “RAVZAT US-SALOTIN” TAZKIRASINING BOBURIYZODA SHOIRLAR IJODINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

RUSTAMOVA GULIZEBO SOBIROVNA
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23292875

ANNOTATSIYA: Sharq mumtoz adabiyotida shunday asarlar yaratilganki, biz ularga murojaat qilishimiz uchun joyning ham vaqtning ham mutlaqo ahamiyati yo‘q. Adabiyot maydonining zafarli qahramonlari hisoblangan bunday asarlar sirasiga biz tazkiranavislik yo‘nalishida bunyod etilgan asarlarni ham kiritib o‘tishimiz mumkin. Jumladan, Boburiylardek qudratli davlatning hukmronlik va hukmdorlik davri bir yon bo‘lsa, ularning shoir-u yozuvchi ekanligi ham o‘ziga xos bo‘lgan betakror bir davr adabiy jarayonini tashkil etadi. Boburiy hukmdorlar ijodidan namunalar keltirilgan va ularga keng o‘rin ajratilgan asarlar sifatida o‘ziga xos o‘ringa va tazkiranavislik an‘anasiga ega bo‘lgan tazkira sirasiga Faxriy Hiraviyning “Ravzat as-salotin” asarlarini haqli ravishda keltirib o‘tsak arziydi.

Kalit so’zlar: Faxri Hiraviy , tazkiranavislik, “Ravzat as-salotin,” Javohir ul-ajoyib”, Husayn Boyqaro ”Devoni”, 81 nafar ijod bilan shug‘ullangan amir va sulton, Temuriylar, Boburuylar.

Tarix sahnasida o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lgan Boburiylar sulolasi adabiyot olamida ham o‘zining o‘chmas izlarini qoldirgan suloladir. Biz boburiy humdorlar orasida ijodkorlari ham bir talay ekanligini ularning o‘zlari yaratib qoldirgan asarlardan tashqari yana ularga zamondosh bo‘lgan yoki bo‘lmasa ulardan keyingi davrlarda yashagan tarixnavis, shoir, yozuvchilarning yozib qoldirgan asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Boburiy hukmdorlar ijodidan namunalar keltirilgan va ularga keng o‘rin ajratilgan asarlar sifatida o‘ziga xos yo‘singa va tazkiranavislik an‘anasiga ega bo‘lgan tazkira sirasiga Faxriy Hiraviyning “Ravzat as-salotin” asarlarini haqli ravishda keltirib o‘tsak arziydi. Tazkira taraqqiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan ijodkorlardan yana biri Faxri Hiraviy sanaladi. Faxri Hiraviyning ijodiy faoliyati doim tadqiqotchi va olimlar e‘tiborida bo‘lgan va doimiy o‘rganilib kelinayotgan mavzulardan biridir. Uning tazkirachilik borasidagi adabiy merosi ham nihoyatda tahsinga sazovordir. Hiraviyning “Ravzat uu-salotin” va “Javohir ul-ajoyib” tazkiralari adabiyotimiz tarixidagi muhim manbalardan biridir.

“Ravzat as-salotin” asari asarning yozilish odobi tasnifiga ko‘ra Allohga hamd, Payg’ambar na’ti, asarning yozilish sababi, niyati ta’lif hamda asar muqaddimasidan iborat. Asarning mundarijasi muqaddima qismida berilgan. Faxri Hiraviy o‘zidan avval yaratilgan tazkiralarga o‘xshatib, she’riyat bilan shug‘ullangan 80 nafar podshoh, sulton va amirlar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi tazkirasini 1551-1555 yillar oralig‘ida yaratgan. Tazkiraning yaratilishiga Husayn Boyqaroning ”Devoni” sabachi bo‘lgan. Bu xususida muallif shunday deydi: ”Kunlarning birida Shoh Hasan huzurida she’riyat xususida so‘z ketar edi, ul janob: “Husayn Boyqaro “Devon”larini bizga sovg‘a qildilar, deya ta’zim va da’vat yuzasidan shunday baytni o’qidilar:

Suxan nazdi suxandon buzurgvor buvad,
Suxan zosmon omad, suxan na xor buvad.
Ma’nosi:
So‘z uni bilguvchilar nazdida ulug‘vor bo‘ladi
So‘z osmondan tushgan, so‘z xor bo‘lmaydi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Faxri Hiraviy Shoh Hasanning ushbu so‘zlarini mulohaza qilgach, she’riyat bilan mashg‘ul bo‘lgan sultonlar haqida asar yaratish fikri paydo bo‘lgan. Shu asnosida “Ravzat us-salotin” tazkirasi yaratigan. Tazkira 7 bobdan iborat va bunda “Majolis un-nafois”ning oltinchi, yettinchi va sakkizinchi majlislari ma’lumotlaridan unumli foydalangan. “Shuningdek XVIII asr o‘rtalarida tuzilgan muallifi noma’lum “Tazkirai shoiron”, Xalil taxallusli Ali Ibrohim Xalilxonning 3278 shoir haqida hikoya qiluvchi “Suhufi Ibrohim”, Sayid Muhammad Siddiq Hasanxon Bahodirning “Shami Anjuman”, Rizoqulixon Hidoyatning “Riyoz ul-orifin”, noma’lum tazkiranavisning “Xarobat” nomli ikki jildli antologiyalarida qayd qilinishicha Navoiyning “Majolis un-nafois”idan asosiy manba sifatida foydalanilgan.”

Faxri Hiraviy o‘zining asarini yaratishda podshohlar xonadoniga mansub bo‘lgan ijodkorlarga asosiy e’tiborini qaratgan hamda ijodkorlar mansub bo‘lgan sulolaning hukmronlik davrini inobatga olgan holda tartib bergan. Masalan, boburiylar temuriylardan keyingi davrda hukmronlik qilgan, dastlab temuriylar sulolasiga mansub ijodkorlar keltiriladi so‘ng boburiylar sulolasiga mansub ijodkorlarga o‘rin beriladi. “Ravzat us-salotin” asarida jami 81 nafar ijod bilan shug‘ullangan amir va sulton haqida ma’lumot mavjud.

Asarning temuriy va boburiy shoirlar aks ettirilgan III bobi “She’rga mayl ko‘rsatgan va (she’r) aytgan Samarqand va Xurosonning Amir Temur Ko‘ragon avlodidan bo‘lgan sultonlari zikrida” deb nomlanadi hamda unda 35 nafar temuriy keltirilgan. Ulardan 4 nafari boburiyzoda shahzodalardir.

“Ravzat us-salotin” tazkirasida muallif Boburiylar davlatining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko’p yaxshi fikrlarni aytib o‘tgan. Amir Temurning “majid”[1] avlodi sultonlaridan va Umarshayx Mirzonong o‘g‘li ekanligini aytib uning shajarasiga ishora qilsa, faxmu farosatidan so‘zlab, ozchilik lashkari bilan Hindiston zaminini zabt etganligi aytadi va bunga doimiy sipohiylarga e’tiborini sabab qilib ko‘rsatadi. Uning san’atga qiziqishini baholar ekan; musiqa ilmida benazir edi deydi; va shuningdek, turkiy va forsiy ash’orda; aruz va qofiyada yuksak mahorat kasb etganligini ta’kidlaydi. Boburning she’r yoz va ayta olishi qobiliyati jihatidan turkiyga moyilroqligi, va ayni choqda, forsiyda ham ravon va aniq ayta olishini e’tirof etiladi[2]. Tazkirada Bobur haqidagi fikrlar davom ettirilib uning turkiydagi “Takalluf har necha…” deb aytiluvchi matla’si va forsiydagi “Halok mekunadam furqati…”[3] matla’lari keltiriladi.

“Ravzat us-salotin” asarida boburiylardan bo‘lgan Humoyun[4] haqida ko‘p izoh berilmaydi va buni uning izohga muhtoj emasligi bilan izohlab, ulug‘laydi. Uning ruboiylaridan namunalar keltiradi. Quyida uning ruboiylaridan birini tahlil jarayoniga tortamiz:

Har damda firoqingdan menga malollik yetadi,
Hijroningning har kuni menga yilga teng.
G‘urbatlikdagi holim shu qadarki, aytib bo‘lmas,
Subhonullohki mening holim g‘aribdir.[5]

---

[1] Shonli,sharafli, mashhur.

[2] Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз С.68

[3] Ushbu manba. 68-bet

[4] Nosiriddin Muhammad Humoyun podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning katta o’g’li

[5] Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз, С.70

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Ruboiy mavzusiga ko‘ra ishq mazusiga daxldor mavzular sirasiga mansubdir. Bunda hijron, ya‘ni ayriliqdan shikoyat yetakchilik qilmoqda. Qahramon ayriliqdagi damlaridan aziyat chekayotganligi, firoq kechayotgan har kuni yilga teng ekanligini ta’kidlamoqda. Ayriliqdagi hayoti shu qadar achinarliki, hatto uni ta’rifu tavsif ham qilmoqning sira iloji yo‘q. Lirik qahramon o‘zini yorsiz g‘arib sanamoqda hamda Ollohga iltijo qilmoqda.

Komron Mirzo asarda adolatda tengsiz shoh deya ta’riflanadi. Xuddi shunga o‘xshash fikrlarning isboti Xo‘ja Hasan Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida ham keltirib o‘tilgan. Komron Mirzo odil bo‘lgani bois u davlat amaldorlari kirdokorlarini ham ayamasdan fosh etgan va shunga yarasha jazo ham tayin qilgan. Faxri Hiraviy keltirgan ma’lumotlarda Komron Mirzo dunyoning eng adolatparvar hukmdorlaridanda a’lo deya aytiladi. Shuningdek, Komron Mirzoning she’riyat borasida nozik didli ijodkor ekanligi nafaqat nozik ta’b ijodkor, balki fors va turk she’riyatining shohi deya ulug‘lanadi. “ Va nihoyatda mashhur bo‘lgan ushbu (g‘azal)dan darvishlik ifori seziladi. G‘azal:

Yana ul sho‘x etagini yuqoriga tortibdi,
Biror kishi uning etagiga qo‘lini cho‘zdimikin.
Har doim g‘am silsilasi naydek bo‘lmaydi,
Changalini ul zulfi sumanosoga urganmikin.
Labing o‘sha tiriklik suvidir Xizrga yuborilgan xat,
Masihning ojizlik shevasidan lof urgandir.
Aybimizni ko‘p deyaverma, San’on qissasini eshitgin:
Bir ishva bilan tarso qizi yo‘ldan urmishdir.
Komron nima sababdan ul mug‘bachaga hush berdi,
Ki mug‘lar dayrida himmat sahbosini bermishdir.”[6]

G‘azal o‘ziga xos yo‘sinda yozilgan bo‘lib, shu o‘rinda an’anaviy obrazlardan foydalangan holda, o‘tmishda o‘tgan tarixiy shaxslar obrazini keltirish orqali talmeh san’ati yuzaga kelgan. G‘azalda nomlari qayd etilgan Xizr, Masih, San’on kabilar tarixiy shaxslardir. G‘azaldagi kishi nomlari shunchaki keltirilmagan. Bu yerdagi har bir shaxs tarixdagi butun boshli voqealarni o‘ziga yuk kabi ortib olgan. Lirik qaharamon mashuqani sifatlarini berar ekan shu o‘rinda mashuqaning turfa “karomatlar”ini sanab o‘tadi. Masalan, mashuqa etagini yuqoriga tortibdi, unga biror kimsa qo‘l urdimikan deganda mashuqaga biror kishi oshiq bo‘libdimiki, u o‘zini vaslini olis tutyapti. G‘am hamisha naydek bo‘lmaydi, buning sababi qilib g‘am o‘zini mashuqaning zulfiga tegibdimi deyilmoqda. Yorning labi haqiqiy tiriklik suvidir, Masihning qayta tiriltirishi yolg‘ondir, aslida sen haqiqiy jon baxsh etuvchisan deyilyapti. Shayx San’on obrazi qalamga olingan bo‘lib, u orqali ijodkor hali meni qilayotgan sa’y-harakatlarim hech nima emas. Shayx San’on tarso qizga oshiq bo‘lib, o‘z dinidan chiqib cho‘chqaboqarlik qilganligiga ishora qilyapti.

Muhammad Askariy Mirzo haqida Faxri Hiraviy quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “...Fahmu farosati nihoyatda yaxshi edi. Va ta’bi nazmi uslubida e’tiborga loyiq edi. Ushbu ruboiy unikidir.

Ruboiy:
Ey Askariy, agar mudom mast bo‘lsang, yaxshi bo‘l,
Va agar boda va jomga berilgan bo‘lsang, yaxshi bo‘l.
Deding: usiz xarobotga bormasman,

[6] Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз, С.7

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Yor bilan ushbu maqomda bo‘lsang, yaxshi bo‘l.”[7]

Muhammad Askariy Mirzo yaratgan ruboiydan uning xokisor, so‘fiy ijodkor bo‘lganligi shunday sezilib turganligi ma’lum. Ruboiyda ijodkor o‘z maqsad muddaosini ochib berish maqsadida an’anaviy obrazlardan foydalangan. Boda, jom, xarobot kabilar bundan dalolat berib turibdi. Tasavvuf adabiyoti qonuniyatlariga ko‘ra boda ishq timsolini ifodalab kelgan bo‘lsa, jom o‘z navbatida ko‘ngilni, ya’ni ishq dardida oromini yo‘qotgan qalbni anglatishga xizmat qilgan. Ruboiyda ijodkor shuningdek, xarobot timsolini ham qalamga oladi va bu orqali lrik qahramon ishq dardiga mubtalo bo‘lgan hamda u darveshlar to‘planadigan joy xarobotga bormoqchi, biroq u yerga Usiz bormoqchi emas. Ishq dardiga mubtalo bo‘lgan oshiqning xarobotga borishidan muddao mashuqa undan bo‘lak hech bir sabab yo‘q. Uning xarobotga borishidan maqsad Yordir. Xarobotda tasavvufiy ta’limotga ko‘ra pirlar o‘z muridlariga ishqdan, u shunchaki ishq emas Haq ishqidan saboq beradilar. Pirlar o‘z muridlari jomi(ko‘ngli)ga boda(ishq)ni quyadilar. Ruboiy mazmuniga va shakliga e’tibor qaratsak, Alisher Navoiyning ham shunga o‘xshash bayti beixtiyor yodimizga keladi. Ya’ni:

Xarobot aro kirdim oshufta hol,
May icharga ilgimda singan safol.

Ijodkor Hazrat Alisher Navoiyning ushbu baytidan xabardor bo‘lganmi yoki yo‘qmi biz bu haqda bir nima deya olmaymiz, biroq umuman olganda mumtoz adabiyot namunalaridan xabardorligidan ham bu qadar ajoyib ruboiylarni ham yarata olgan bo’lishi tabiiy bir holdir.

“Muhammad Hindol Mirzo bahodirlik va botirlikda olamning mashhuridir. Va ta’bi latofati va zehi istiqomatida unga o‘xshagan kamdir. Ushbu matla unikidir va nozanin (ta’rifi)dan xoli emas. Matla:

Sarv qading niyoz ahliga moyil emas,
Sarvi nozda bo‘lmagan narsa sening boshingga niyozdir.”[8]

Lirik qahramon o‘z yorining go‘zalligini sarv daraxtiga qiyos qilmoqda. Mumtoz adabiyotda mashuqaning qomatini sarv darxtiga mengzash an’anaviy tasvir usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘rinda ijodkor mana shunday tasviriy vositadan unumli foydalanmoqda. Mashuqa go’zallikda tengsiz deyilmoqda va uning qomati baland va tik o‘suvchi sarv daraxti bilan solishtirilmoqda.

Umuman olganda Faxri Hiraviy keltirgan ma’lumotlardan biz shuni anglashimiz mumkinki, boburiy ijodkorlar shohlikni ham shoirlikni ham o‘z o‘rniga qo‘ya olgandir. Shohda adolat shoirda esa vijdon birinchi o‘rinda turmog‘i kerakligi barchamizga ma’lum. Boburiy hukmdorlar orasidan yetishib chiqqan shoir shohlarning ijodi shohlar uchun adolatli qonun kitobi, ijodkor ahli uchun esa vijdon qonuniyatlari qayd qilingan hujjat vazifasini o‘taydi desak aslo mubolag’a qilmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз,
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи

[7] Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз, С.

[8] Фахри Ҳиравий “Равзат ус-салотин”. Т. Мўмтоз сўз, С. 74

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

3. https://tafakkur.net/mening-konglumki/zahiriddin-muhammad-bobur.uz
4. Сирожиддинов Ш. XV-XVI асрлар тарихий ва эсдалик асарларида Алишэр Навоий хаети ва фаолияти талкини.-Тошкент, 1997
5. Internet saytlari